



*Zulfiyaxonim
tavalludining 100 yilligi*

Bahor keldi seni so'rolab...


Zulfiya hayoti va ijodi

Taniqli o`zbek shoirasi, tarjimon jurnalist va jameat arbobi Zulfiya Isroilova 1915-yil 1-mart kuni temirchi (otasi Isroil dergiz) oilasida dunyoga keldi. Bolaligida onasi kuylagan xalq qo`shiqlari, ertaklar va rivoyatlar, xalq og`zaki ijodi namunalari sehri yosh Zulfiyani badiiy adabiyot, she`riyat olamiga butun umr mahliyo etib qo`ydi.





Zulfiya Xotin-qizlar
pedagogik bilim yurtini
tugatgach (1931-1934),
O'zbekiston Fanlar
qo'mitasi qoshidagi til va
adabiyot instituti
aspiranturasiga o'qishga
kiringan (1935). So'ng
yoshlar va o'smirlar
adabiyoti nashriyatida
bo'lim mudiri
(1938-1940), O'zbekiston
davlat nashriyatida bo'lim
mudiri (1941-50),
«O'zbekiston
Xotin-qizlar» («Saodat»)
jurnalida bo'lim mudiri
(1950-53), bosh muharrir
(1954-85) bo'lib ishlagan.


A small, light-colored bird is perched on a branch of pink cherry blossoms. The bird is facing away from the camera, showing its back and tail. The blossoms are in various stages of bloom, with some fully open and others as buds. The background is a soft, out-of-focus pink and blue.

Хуррият, келдинг-эй, наҳотки келдинг,
Келар йўлларингда пинҳона толдим.
Менинг ота-онам, жон Ватанимда,
Элим тақдирида абадий қолдинг!
Келдинг-ей, Истиклол, истикбол бўлиб,
Қалбимга насиминг билан йўл солдинг.
Сен шу хур назмга ихтиёр бериб,
Мен оғир булутдек бир ёғиб олдим...



Zulfiyaning ilk she'ri 1931 yilda «Ishchi» gazetasida bosilgan. Dastlab 1932 yilda «Hayot varaqalari» she'rlar to'plami nashr etilgan. Shundan keyin uning «Temiroy» (1934), «S'He'rlar», «Qizlar qo'shig'i»(1939) she'riy kitoblar e'lon qilingan: Zulfiya she'riy ijodining nurlanishi «Uni Farxod der edilar»(1943), «Hijron kunlarida» (1944) va «Hulkar» (1947) to'plamlari bilan bog'liq. Ayniqsa, H.Olimjonning bevaqt vafotidan keyin (1944) yozilgan, ruhiy silsilalar va qalb iztiroblari bilan to'la she'rlar Zulfiya ijodida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lganligidan darak beradi. Zulfiya shaxsiy tasviri orqali 2-jahon urushidan katta talofat va yo'qotishlar bilan chiqqan xalqning dard va alamlarini ifodaladi.





“Энг гуллаган ёшлик чоғимда
Сен очилдинг кўнгил боғимда,
Шунда кўрди кўзим баҳорни,
Шунда калбим таниди ёрни...”.







ЗУЛФИЯ

узлар
совтаеи

ВИСОЛ - ВЕРИГАЛ
ЗУЛФИЯ

زافشان

ЗУЛФИЯ
Гулларим

З.ГУЛТАН
Бизнинг ынъисарым ситте

ЗУЛФИЯ
ГУЛТАН



Qayg'udan baxt topgan
ayol qudrati,
Chaqmoqning toshidek,
gullarday nozik.
Vafo, sadoqatning
yorug' timsoli,
Muhabbat cho'qqisida
qad ko'tarar tik.
She'riyat olovli
yurakdur asli...
She'riyatni yengmas
na o'lim, na vaqt,
She'riyat karvonin
ayol sarboni.
G'am pallasidan
topdingizmi baxt,
Demak, u tirikdir
hamon yashaydi.

Ўзбекистон халқ шоири, халқаро “Жавоҳарлаъл Неру”, “Нилуфар” мукофотлари совриндори Зулфия Исроилова ҳақида қанча гапирсак кам. Унинг ўзбек адабиёти, нафақат ўзбек, балки Шарқ адабиёти ва фалсафаси ривожига қўшган ҳиссаси алоҳида таҳсинга лойиқдир! Зеро, Президентимиз таъбирлари билан айтганда, Зулфияхоним “...бу ёруғ дунёда айрилиқ ва хижрон азобини, ғам-андухларни матонат билан маҳв этган, армонлардан тирик орзулар яратган, тоғдек бардоши билан садоқат ва вафо рамзига айланди”.





- ◆ Қалб бўлганда йироқда
- ◆ Ирода экан ожиз,
- ◆ Дўстлар ҳам кўп атрофда,
- ◆ Аммо мен якка ёлғиз.
- ◆ Бирдан қалбим кексариб
- ◆ Қон ҳам қочди юзимдан,
- ◆ Сен сирдошни ахтариб
- ◆ Хаёл кетар изингдан.
- ◆ Қайга кетдинг юрагим
- ◆ Битди тоқат ва бардош,
- ◆ Сухбатингдир тилагим,
- ◆ Дилда хасратим қат-қат.
- ◆ Кўндир айтажак сўзим,
- ◆ Ўғитларингга зорман,
- ◆ Йиглайсан деб дўстларим
- ◆ Таъна қилар нетай мен.
- ◆ Тинчлик бермайди менга
- ◆ Ёқиб кетдинг олов,
- ◆ Нетай етмайман сенга,
- ◆ Ўртача ташланган зов.
- ◆ (Зулфия Исроилова)



*Shoira adabiy-ijtimoiy
faoliyati uchun
ko'pgina davlat
mukofotlari bilan
taqdirlangan.*

*Aytib ber-chi, shuncha
sevganlar
Bo'lganmikan mencha
baxtiyor?*

Hamid Olimjon